

Ona yurtning - oltin beshiging

# TONG Yulduzi

№46 (66379)  
2002 yil  
11 noyabr,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan.

## Konstitutsiyamizni o'rganamiz

Aziz o'quvchilar, siz hayotingizning har bir daqiqasida qonun-qoidalarga duch kelasiz. Bu qonunlarning onasi baxtimiz qomusi bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidir. O'qishda, ishda,

uning haqiqiy o'zbekcha ma'nosi oldinda o'tiruvchi, yetaklovchi ma'nolarini beradi.

Prezident davlat boshlig'i bo'lib, u saylov yo'li bilan xalq tomonidan ma'lum muddatga saylanadi va shu



# ASOSIY QONUNIMIZ ALIFBOSI

haq- huquqingizni tanishingizda, jamiyat oldidagi burchingizni anglab yetishingizda Konstitutsiya sizga hamroh bo'ladi, deyiladi «Konstitutsiya alifbosi» darsligida.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi qoshidagi Respublika ta'lim markazining Ilmiy-uslubiy kengashi nashrga tavsiya etgan bu darslik 1 - sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

Darslikdagi «Davlat va uning ramzlari», «Mulk nima?», «Yo'l harakati qoidalari», «Prezident tushunchasi» haqidagi bo'limlar bilan tanishib chiqsangiz, ishonamizki, sizning huquqiy bilimingiz yanada oshib boradi.

Bugun sizlar bilan «Prezident tushunchasi»ga to'xtalamiz.

Prezident - lotincha so'z bo'lib,

## 2002 yil - Qariyalarni qadrlash yili



### BUVIJONIM

Ertak aytib tolmanan,  
Mehr nuri porlagan.  
Anglatgan sof tuyg'uni,  
G'am nima-yu kulguni.

Doim shirin so'zlagan,  
Iqbolimni ko'zlagan.  
Bag'riga olgan palla,  
Onamday aytgan alla.

Suyuk osmonimsiz siz,  
Xojiyoyjonimsiz.  
Oilamiz boshisiz,  
Qalbimning quyoshisiz.

**Dilafrozbona USMONOVA,**  
Toshkent shahridagi  
169 - maktabning  
6-sinf o'quvchisi.

muddat ichida davlatni boshqaradi.

O'zbekiston davlat rahbari Prezident hisoblanadi. Mamlakatimizda Prezident lavozimi 1990 yil 24 martda joriy etilgan va Mustaqillikka erishganimizdan so'ng 1991 yil 29 dekabrda Islom Abdug'aniyevich Karimov O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib saylandi.


Biz barchamiz davlatimiz Prezidentini onamizni, Vatanimizni, uning bayrog'i, gerbi hamda madhiyasini sevgandek sevamiz. Unga sadoqatli bo'lamiz. Chunki kattalar qadrlangan, rahbar ulug'langan yurtda intizom mavjuddir. Intizom bor joyda qonun ustuvor mamlakatda farovonlik barqaror bo'ladi.



- Ma'lumki, keyingi paytlarda mamlakatimizda sportga katta e'tibor berilyapti. Ko'plab tadbirlar, musobaqalar uyushtirilyapti. Shunday musobaqalardan biri «Umid nihollari»dir.

## JISMONIY TARBIYA HAR KUNI KERAK

Yaqinda maktabimizda ana shunday musobaqa bo'lib o'tdi, - dedi 20- maktab o'quvchilari Anvar Shorahmedov, Nilufar Rahmatova. - Yugurish bo'yicha sinfdoshlarimizdan A'loxon Anvarxo'jayev marraga birinchi bo'lib yetib keldi va hammadan



ham chaqqon va epchilligini isbotladi. Chunki u doimo sport bilan shug'ullanadi-da.

Ustozlarimiz A'loxonni maqtashganida bizning ham unga juda- juda havasimiz keldi. Jismoniy tarbiya bilan har kuni shug'ullanish kerakligini his qildik.

## Mening maktabim - seni saqlagum

- Ustozimizning aytishlaricha, bu yil barcha maktablarda ilk bor «Kitob marafoni» o'tkazilayotgan ekan, - deyishdi maktab o'quvchilari Dilfuza Zoitova, Aziza Nasritdinova, Shohida Qodirova. - Yaqinda bizning maktabimizda ham «Kitob- ma'naviyat

sinf o'quvchilari esa she'rlar yod oldilar, kichik- kichik

s a h n a ko'rinishlarini tayyorladilar.

Xullas, har bir sinf o'z chiqishlari bilan marafonda faol ishtirok etdi.

Maktabimiz rahbari Shahnoza opa Qosimova

ham «KITOB MARAFONI» h a m d a BAYRAMGA AYLANDI maktabimiz

## BIZ BILAN ZERIKMAYDILAR

- Biz Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi Abror Xidoyatov nomli 20- maktabda o'qiyamiz. Sinfdagi 39 nafar o'quvchimiz. «Tong yulduzi» gazetasining har bir sonini diqqat bilan kuzatib boramiz.


Avvalo ustozimiz haqida. Opamiz Dilfuza Zoitova bizga juda mehribon. Darslardan qiynalayotgan sinfdoshlarim bilan alohida shug'ullanadilar. Biz bilan sira zerikmaydilar, charchamaydilar. - dya ustozlarini maqtashdi 3- «V» sinf o'quvchilari.

Bu yil Dilfuza opamiz tumanimizda o'tkazilgan «Yil o'qituvchisi-2002» tanlovida qatnashdilar. Bundan biz o'quvchilar ham juda xursand bo'ldik. Shunday ustozdan saboq olayotganimizdan faxrlanamiz.

kaliti» shiori ostida «Kitob marafoni» bo'lib o'tdi. Unda yuqori sinf o'quvchilari kutubxonadagi kitoblar yordamida turli mavzularda devoriy gazetalar tayyorladilar, boshlang'ich

o'qituvchilari bu tadbirimizni kuzatib turdilar.

Hatto bir marotaba ham kutubxonaga kelmagan o'quvchilar





ham marafon tufayli kutubxonaga a'zo bo'lishni xohlab qoldilar. Chunki ular kitob ma'naviyat kaliti ekanligini tushunib yetdilar.

«Kitob marafoni» maktabimizga haqiqiy bayramni olib kirdi. Kun davomida barchamizning fikrimiz faqat kitobda bo'ldi. Yanada ko'proq kitob o'qishimiz kerakligini tushundik.

## MAKTAB- BU KICHIK DAVLAT

- Har bir davlatning o'z qonun-qoidalari bor. Bizning maktabimizning ham o'z qonunlari bor. Masalan, haftaning har chorshanba va shanbasi tozalik kuni hisoblanadi. Unda barcha sinf o'quvchilari obodonlashtirish, tozalash ishlari bilan shug'ullanadilar, - *deya s u h b a t i m i z g a q o ' s h i l d i 8- «A» sinf o'quvchisi Mirjalol Abdurahmonov.*

- Ayni paytda maktabimizda kuzgi obodonlashtirish oyligi o'tayapti. Unda barcha sinf o'quvchilari faol ishtirok etayaptilar. Bu borada ayniqsa, 6- «A», 7- «V», 8- «A» va 10-11- sinf o'quvchilari birinchilar qatorida borishyapti.

Kuz kunlari daraxtlarning barglari yerga tez- tez to'kilib turadi. Biz xazonlarni yoqmaymiz. Chunki bu zarardir. Buni bizga ustozimiz Mastura opa Yo'ldosheva qayta-qayta ta'kidlaydilar.

Barcha tengdoshlarimizni kuzgi obodonlashtirish oyligida faol qatnashishlarini istaymiz.

Barcha tengdoshlarimizni kuzgi obodonlashtirish oyligida faol qatnashishlarini istaymiz.

## ONAMIZDEK AZIZ

- Maktabimizning o'zgacha fayzi bor. Atroflari daraxtzor, gulzor. Xonalari ozoda va katta, - *dedilar Abror Xidoyatov nomli 20 - maktab o'quvchilaridan Javohir Latipov, Shohida Qodirova.* - Biz bilim maskanimizni ota- onamizdek aziz deb bilamiz. Uni ko'z qorachig'idek asrab- avaylaymiz. Ustozlarni aytmaysizmi. Biram mehribon, shirinso'z va bilimdon. O'z navbatida talabchan, qattiqqo'l. Ular



boshchiligida maktabdan tashqari ishlarda faol qatnashamiz. Har bir tadbirimiz jonli, savol- javobli o'tadi.

Maktab oshxonasiga kirsangiz, ishtaha bilan ovqatlanasiz. Hammayoq saranjom- sarishta. Taomlari mazali.

Mana shunday bilim maskanida ta'lim-tarbiya olayotganimizdan faxrlanamiz.

Prezident asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi.)

Boshi o'tgan sonlarda).

Vatan ravnaqi

Vatan — insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira. Vatan — ota-bobolarimizning xoki poklari jo bo'lgan, vaqti-soati yetib har birimiz bosh qo'yadigan muqaddas zamindir.

Vatani bor odamning g'urur-iftixori yuksak, maqsad-muddaolari aniq bo'ladi. Tog'dek tayanchi — Vatani borligini his etgan inson hayotning har qanday sinovlariga doimo tayyor turadi.

Vatanning ravnaqi, avvalo, uning farzandlari kamoliga bog'liq. Bu esa har bir yurtdoshimizni o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlarini bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi.

Milliy g'oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g'oya hech qachon milliy g'oya bo'lolmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni o'zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbaiga aylanadi.

Bugungi kunda jamiyatimizda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlatimizning iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalqimizning ma'naviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi bo'ladi.

Bu o'zgarishlar jarayonining ustuvor xususiyati — xalqimizning bunyodkorlik faoliyatidir. Bunda ana shu bunyodkorlik salohiyatini to'la yuzaga chiqarish, iqtisodiyotni ilg'or texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, yoshlarimizni sog'lom va barkamol qilib voyaga yetkazish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

(Davomi bor.)

A.ABDULLAJONOV yozib oldi



**Hayajon****SHAHNISABZ - YAM-YASHIL SHAHAR**

Men Qashqadaryo farzandiman. Ushbu maktubimni quvonch va hayajon bilan yo'llayapman. Chunki yaqinda ko'xna va tabarruk shahrimiz Shahrisabzning 2700 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanalarda qatnashdim. O'sha kungi hayajonim hali bosilganicha yo'q. Shahrimizda bo'lgan to'yu tantanalarni televizor orqali tomosha qilgandirsiz.

Go'zal kelinchakdek yasanib olgan Shahrisabzimizni bir ko'rsangiz edi. Ko'chalari va hiyobonlarining sarishtaligini aytmaydizmi?! To'yga to'yona bilan deganlaridek, ota-onalarimiz bu kunni o'z samarali mehnatlari bilan, biz o'quvchilar esa a'lo baholarimiz bilan qarshi oldik.

Men shu tabarruk zaminning, Firoqiy, Ravnaqiy, Xiromiydek shoirlarımız, Xusrav Dehlaviy, Mirzo Bedil, Mirzo G'olib kabi allomalarimiz, xalqimiz dong'ini dunyoga taratgan Sohirqiron Amir Temur bobomiz kamol topgan yurtning farzandi ekanligimdan faxrlanaman.

**Nigora RUSTAMOVA,**  
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi  
38 - o'rta maktabning  
10 - «V» sinf o'quvchisi.

**Ta'zim****ULAR JUDA MEHRIBON**

Assalomu alaykum «Tong yulduzi»! Men sening har bir sahifangni o'qib, kuzatib boraman. «Xatlar tegirmoni» sahifasidagi tengdoshlarim maktublarini qiziqish bilan o'qib, ayniqsa o'quvchilar o'z ustozlari haqida maroq bilan yozishidan quvonaman.

Bizning maktabimizdagi ustozlar ham juda mehribon. Ular doimo bizga ko'p o'qishimiz, izlanishimiz kerakligini qayta-qayta ta'kidlashadi.

Kelajakda o'z o'rnimizni topishimiz uchun albatta bilimdon bo'lishimiz zarurda. Buni uqtira bilgan ustozlar sog'-omon bo'lishsin.

**Zilolaxon**  
**ABDUSAMATOVA,**  
Sirdaryo viloyati, Xovos tumani.  
(Zilolaxon maktabini ko'rsatishni unutibdi).

**YANGI ZELLANDIYALIK O'QITUVCHI**

Har tong jonajon litseyim tomon oshiqaman. Shu ikki oy ichida litseyim menga maktabim kabi muqaddas dargohga aylandi. Biz uchun yaratilgan shart-sharoitlar hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradi. O'qishga talab ham shunga yarasha. Bizga Koreyada o'qib, malaka oshirib kelgan, oliy ma'lumotli muallim va dotsentlar dars beradilar. Litseyimizda ikkita katta kutubxona mavjud bo'lib, ulardan biri ingliz tilida nashr etilgan kitoblar, chet el shoir va yozuvchilarining asarlari bilan boyitilgan. Ikkinchisi esa adabiyotimizning oltin merosi bo'lmish «O'tgan kunlar», «Mehrobdan chayon» kabi o'zbek



romanchiligining nodirdurdonalari, milliy ma'naviyatimiz sarchashmalarining hayoti va ijodidan

so'zlovchi kitoblar va darsliklar bilan to'la. Litseyimiz gumanitar fanlarga ixtisoslashgan. Direktorimiz Jumanazar aka Xasanovning ta'birlari bilan ayganda, «akademik litseyda har bir fan birinchi darajalidir, quyi daraja

degan so'zga o'rin yo'q».

Shu kunlarda «Aksels» nomli tanlov bo'lib o'tmoqda. Tanlov uch bosqichdan iborat bo'lib, ushbu konkursdan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar bir yil

davomida Amerika Qo'shma

**Litseyim - faxrim mening**

Shtatlarida o'qib kelish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Bugun biz uchun ajoyib kun bo'ldi. Ingliz tili darsimiz yangi zellandiyalik o'qituvchi Miss Xellen boshchiligida o'tdi. U biz bilan yaqindan tanishib, Yangi Zellandiyadan olib kelgan fotosuratlarini ko'rsatdi, o'zi va yurtidagi bolalar hayoti haqida so'zlab berdi.

Miss Xellen bilan o'tgan darsimiz menda katta taassurot qoldirdi.

**Nargiza RIHSIBOYEVA,**  
O'z.D.J.T.U. qoshidagi Akmal Ikromov akademik litseyining I-bosqich, 3-guruh talabasi.





## VATAN ICHRA VATAN

*Olam aro bebaho gulshan,  
Har qadami zar, tillo maskan.  
Tug'ilgan joy, ulg'ayib o'sgan,  
Yomonlikning yo'lini to'sgan,  
Vatan ichra Vatan mahallam,  
Tayanchimdir, jon-tan mahallam.*

Darhaqiqat, mahallalarimizning bugungi kundagi qiyofasi barchamizning dilimizni xushnud etadi. Bizlardan «Qayerdانسiz?», deb so'rasha, «Men falonchi mahalladanman», deya g'ururlanib javob beramiz.

Kuni kecha shahrimizning «Bog'i Eram» istirohat bog'ida Toshkentning Akmal Ikromov, Mirobod, Mirzo Ulug'bek, Sirg'ali, Hamza, Chilonzor, Shayxontohur, Yunusobod, Yakkasaroy va Sobir Rahimov tumani mahalla bolalari ishtirokida «Ajdodlar merosi» deb nomlangan uch bosqichli musobaqa bo'lib o'tdi:

1. O'z mahallasi tarixini yoritib berish.
2. Ijodiy ko'rgazmalar, ya'ni mahalla to'garaklarida yasalgan buyumlar ko'rgazmasini himoya qilish.
3. «Qariyalarning mahalladagi o'rni» mavzusida sahna ko'rinishi namoyish etish.

Mahallalarning chiqishlarini baholash juda ham qiyin kechdi. Chunki har bir mahallaning chiqishi bir-biridan qolishmasdi.

-Biz Shayxontohur tumanidagi 169 - maktabda o'qiyimiz, -deya o'zlarini tanishtirgan Dilafuz Usmonova va Mahmudjon Azimovlarning chiqishlari, o'qigan she'rlari va sahna ko'rinishlari bizga juda ma'qul bo'ldi. Ularning maktabi musobaqada 3-o'ringa loyiq deb topildi. O'zlari esa faol ishtiroklari uchun «Faxriy yorliq» bilan mukofotlandilar.

Biz ham bu musobaqadan katta taassurotlar bilan qaytdik. Shunday musobaqalar ko'plab o'tkazib turilsa, biz nafaqat o'zimiz, balki boshqa mahallalarning tarixi va bugungi kuni bilan tanishib borardik.

*Muhayyo OCHILOVA,  
Toshkent shahridagi Odil Qayumov nomli  
131 - maktabning o'quvchisi.*

## «MENI TUSHUN»...

Yaqinda maktabimizda Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Shu munosabat bilan biz o'quvchilar Navoiy bobomizning she'rlaridan yod oldik. Hikmatli so'zlaridan o'qib, o'rgandik.

Bundan tashqari, 10-sinf o'quvchilari o'rtasida «Meni tushun» o'yini o'tkazildi. Unda ikki guruh, ya'ni «Navoiy» hamda «Foniy» jamoalarining bilimdonlari o'zaro bellashdilar.

O'yindagi barcha savollar faqat Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida bo'ldi. O'yinda «Foniy» jamoasi o'zining bilimdonligini ko'z-ko'z qilgan bo'lsa-da, biroq do'stlik g'alaba qozondi.

O'quvchilardan, ayniqsa, Gulnoza Valiyeva, Dilbar Avazova, Oybek Shoxo'jayev, Lobar Umerova, Bibiniso Samiyeva singari bilimdonlar barchamizga o'rnak bo'lishdi.

Barcha ishtirokchilar maktab ma'muriyati tomonidan rag'batlantirildi. Shaxsan men Navoiy bobomizning g'azallarini ifodali o'qib berdim va kitob bilan taqdirlandim.

Kechamiz barchamizda katta taassurot qoldirdi. Bu kabi tadbirlar bizning maktabimizda tez-tez bo'lib turadi.

*Bobir SHOXO'JAYEV,  
Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi  
tumanidagi A.Xo'jayev nomli  
maktabning  
8- «V» sinf o'quvchisi.*

## «XIVAGA GALING»

Xivani «Osmon ostidagi ochiq muzey» deb eshitganingizdan xabarim bor. Haqiqatan ham shunday. Qadim tarixlardan so'zlaguvchi osori atiqalarni o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz edi. Yiliga minglab sayyohlar tashrif buyuradigan go'zal maskan - Xiva yodgorliklari barchani lol qoldiradi. O'z rangini, sifatini yo'qotmay, bugungacha xusnini ko'z-ko'z qilayotgan Ichanqal'a yoki Kaltaminor kabi yodgorliklar sizda ham chuqur taassurot uyg'otishi tayin. Ular 25000 yillik tarixdan

so'zlaydi. Ishonmasangiz, Xivaga galing, xorazmcha raqsni, shevamizni o'rgatamiz.

Shahrim nomiga kelsak, «Xiva» so'zining kelib chiqishiga doir afsonalardan

*Shahringiz tarixini bilasizmi?*

birida shunday deyiladi: «Qadimda Ajamdan (Eron) Xorazmga yo'l olgan karvon Jayhunning (Amudaryo) so'l qirg'og'ida joylashgan bir quduq yonida to'xtaydi. Quduq juda ko'hna bo'lib, uning atroflarini karvondagilar tozalaydilar. Keyin quduqdan ko'zaga

suv to'ldirib sarbonga uzatadilar. Karvonboshi - sarbon tashna bo'lgani bois ham suvni oxirigacha sipqoradi-da, «Hey-voh» deydi. Shundan keyin quduq yonida bir rabot, keyin qishloq, so'ngra shahar barpo etiladi». Shahrimiz nomining kelib chiqishi to'g'risida yana boshqa ko'p rivoyatlar mavjud. Men ularni topib, o'rganib keyingi maktublarimda yozaman.

*Ilmira ATONAZAROVA,  
Xorazm viloyati, Xiva  
shahridagi Pedagogika  
kollejining huquqshunoslik  
bo'limi,  
1-bosqich talabasi.*





Salom qadrlı «Tong yulduzi»! Ushbu maktubni G'ijduvondan yo'llayapman.

maktabimizda har yili ushbu bayramga bag'ishlangan kecha va tadbirlar, ko'rik-

do'stlik bilan qudratlimiz» deb nomlangan bayramimiz ham

# ENG ARDOQLI BAYRAM

Ukrainadan bu shaharga ko'chib kelganimga 22 yil bo'ldi. Shuncha yildan buyon 21- maktabda o'quvchilarga saboq berib kelyapman. Mana o'n yildirki maktab o'qituvchilar jamoasiga boshchilik qilaman. Jamoamiz ahil, inoq, o'quvchilarimiz izlanuvchan, tirishqoq bolalar. Men maktabimni, ikkinchi Vatanim bo'lmish G'ijduvonimni juda yaxshi ko'raman. Mustaqil O'zbekiston fuqarosi bo'lib, ozod va obod yurtim bilan faxrlanib yashayapman. Shuning uchun ham O'zbekiston Konstitutsiyasi bayramini juda qadrlayman. Ko'p millatli

tanlovlar uyushtiramiz. Bu yilgi 7- «A» sinf o'quvchilari ishtirokidagi «Biz

avvalgilaridan qolishmadi. Turli millat farzandlari bo'lmish o'g'il-qizlarimiz o'z milliy liboslarini, kuy va qo'shiqlarini, milliy taomlari, shirinliklarini «ko'z-ko'z qilishdi».



Kecha bolajonlarda ham, kechamizga mehmon bo'lib kelgan ota-onalarda ham juda katta taassurot qoldirdi. Yillar asrlarga ulanib, eng ardoqli bayram - Konstitutsiya kunini tantana bilan nishonlash avlodu ajdodlarimizga nasib etaversin.

*Irina ADIZOVA,*  
*Buxoro viloyati,*

*G'ijduvon tumanidagi*

*21 - maktab direktor o'rinbosari.*

## Konstitutsiya olamiga sayohat

### MAKTAB ISHLARI DAVLAT NAZORATIDADIR

Inson umri oqar suv ekan. Yillarim, ayniqsa, o'yinqaroq va betashvish bolalik kezarim tutqich bermas kapalakdek uchib, umr o'tayotganini sezdirmay qo'yar ekan. Ammo ayrim damlar xotirada muhrlanib qolarkan.

To'rt yoshdan beshga qadam qo'ygan kunlarim uyni boshimizga ko'targudek bo'lib o'ynayotsak, televizor ko'rayotgan dadam bizga: «Biroz shovqin qilmay turinglar. Televizorda tarixiy voqea bo'lyapti. Konstitutsiya qabul qilinyapti», dedilar.

- Konstitutsiya nima degani, dada?
- Konstitutsiya - qonunlarning qonuni, -javob berdilar dadam...

Garchi Konstitutsiya qabul qilinishiga bag'ishlangan majlisda aytilayotgan gaplarning ma'nosini to'liq tushunmasam-da, dadam bilan birgalikda uni tomosha qilib o'tirdim. Ko'rsatuv tugagach, dadamni savollarga ko'mib tashladim. Shu kuni Konstitutsiya haqidagi ilk

tasavvurga ega bo'ldim...

O'sha-o'sha Konstitutsiyaga nisbatan qiziqishim ortib bordi. Keyinchalik maktabga borgach, bir savol meni o'ylantira boshladi: «Nega maktabda «Konstitutsiya» degan fan o'tilmaydi?» Nihoyat, 2001-2002 o'quv yilining boshida boshqa fanlar qatoriga «Konstitutsiya olamiga sayohat» deb nomlangan fan kiritilganini eshitib quvonib ketdim. Biz butun sinfimiz bilan bu fanni katta qiziqish bilan o'rganmoqdamiz. Ushbu fan o'qituvchisi Jamila opa Ernazarovanning sa'y-harakatlari tufayli bu fan haqidagi bilimlarimiz kundankunga ortib bormoqda. Men bu fanni o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldimki, haqiqatan ham Konstitutsiya - qonunlarning qonuni ekan.

Konstitutsiyada bizning huquq, burch va erkinliklarimiz qonun yo'li bilan mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiya biz uchun farovonlik dasturul amali bo'lib xizmat qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi XII chaqiriq Oliy Kengashining XI sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul

qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 6 bo'lim, 26 bob, 128-moddadan iborat. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, huquq, burch hamda erkinliklarimiz Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 41-moddasida shunday so'zlar bor: «Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi.

Maktab ishlari davlat nazoratidadir».

Ha, buni chin ma'noda biz o'quvchilarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik deyish mumkin. Bunday g'amxo'rlikning javobi a'lo baholarga o'qishimizdan iborat, deb o'ylayman. Zero, a'lo o'qish buyuk va baxtli kelajagimizga poydevor yaratish demakdir.

*Yayra ADINAYEVA,*  
*Toshkent viloyati, Ohangaron*  
*tumanidagi 12 - maktabning*  
*7 - «A» sinf o'quvchisi.*



## Ukam bog'chaga boradi

Men bolajonlarni juda sevaman. Ularsiz hayotimni tasavvur ham qilolmayman. Shuning uchun ham ish faoliyatimni kichkintoylar bilan uzviy bog'laganman. Maktabgacha Tarbiya muassasasiga mudiralik qilaman.

O'tgan o'quv yilidagi asosiy - «Davlat ta'lim talablari asosida yangi tayanch», «Uchinchi

milliy yillikning bolasi» rejalarimizga binoan bolalarning dunyoviy bilimlari, ahloqiy saviyasini yuksaltirish borasida Qonunimiz - qomusimiz, Ekologik tarbiya, iqtisodiy

olgan mashqlar, harakatli o'yinlar,

## KICHKINTOYLAR HAYOTIMNING

estafetalar o'ynatishga harakat qilishadi.

Yilning bahor va kuz oylarida «Fitobar» xonamiz muntazam ishlab turadi. Turli dorivor giyohlardan tayyorlangan damlamalarni bolajonlar mazza qilib ichishadi. Bunday damlamalarni ichsalar, salomatliklari yanada mustahkamlanishini tarbiyachilarining nasihatlaridan bilib olishgan.

Xullas, muassasamizga qatnaydigan kichkintoylar zerikish nimaligini bilishmaydi. Har tong darvozamizdan xursandchilik, quvnoqlik bilan kirib kelishadi. Ularni mehribon tarbiyachilari, maroqli o'yinlar kutayotganini yaxshi bilishadi-da.

**M. SOBIROVA,**

*Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 605 - Maktabgacha tarbiya muassasasi mudirasi.*



*Siz suratda ko'rib turgan mana bu bolajonlar tarbiyachilari Saltanat Turoпова hamda uning yordamchisi Aziza Yunusovalarni juda yaxshi ko'rishadi.*

hokimiyatining qaroriga binoan «Huquqiy maqom» berilgan. Bizda ta'lim-tarbiya ishlari Ustav asosida o'zbek va rus tillarida olib boriladi.

Bolajonlar yaxshi gapning, shirin muomalaning gadosi bo'lishadi. Ularga bir bora qattiq gapirsangiz, sizdan ham, bog'chasidan ham ko'ngli sovib ketadi. Shuning uchun ham muassasamizda tarbiyalanayotgan 464 nafar o'g'il-qizni mehr bilan tarbiyalab kelayotgan M.Isroilova, U.Matkarova, Z.Tosheva, M.Karimova singari tajribali mutaxassislarimiz ularning ko'ngliga yo'l topishga harakat qiladilar. Nazokat Karimova, Saltanat Turoпова, Umida Umarova kabi yosh mutaxassislarimiz esa ulardek bo'lishga intilishyapti.

tushunchalar, jismoniy tarbiya borasida aniq tadbirlar belgilab olganmiz. Shunga ko'ra «Ma'rifat va ma'naviyat xonasi»,

«Ertaklarga sayohat» xonalari joriy etilgan. Bolajonlarni sog'lomlashtirish maqsadida tashkil qilingan basketbol, shashka, raqs to'garaklarimiz muntazam faoliyat ko'rsatyapti. Tarbiyachilarimiz sayr vaqtida ham bolalarga sport elementlarini o'z ichiga



*«Jismoniy tarbiya - jonu dilimiz» deyishadi Miliana Nikiforovna tarbiyalayotgan. 13 - guruh kichkintoylari.*

**Aziz bolajonlar, siz ham uka va singillaringizni bog'chaga olib borasiz-a? Agar ular xarxasha qilmay ketsalar qanday yaxshi. Onalaringiz ko'ngli ham xotirjam bo'ladi.**



## Yosh mutarjim

Bir kuni men o'rmonda ov qilib yurardim. Kun bo'yi izg'ib yursam ham hech narsa ilinmadi. Qosh qorayganda men Missisipi bo'yiga keldim. «Kech bo'p qoldi, uyga ketish kerak», dedim o'zimga o'zim, so'ng o'ylanib qoldim: «Xotinim uyda och yotibdi, puli ham yo'q bechoraning. Men ertalabgacha shu yerda qolaman. Balki ertalab ovim o'ngidan kep qolar».

Bitta ulkan daraxtni ko'rib qolib, tagiga kelib to'xtadim. Yerga cho'zilganча uyquga ketibman. Ertalab soat to'rtida dahshatli shovqindan uyg'onib ketdim. Tepaga qaragandim, daraxtning uchida ikkita burgut bolasi turgan kattakon uyani ko'rdim. Shunda Yangi Ormonda London hayvonot bog'i uchun ikkita burgut qidirib yurgan angliyalik janob esimga tushib qoldi. U yaxshigina pul ham to'lagan bo'lardi. O'zimga o'zim dedim: «Hoziroq daraxt

*Ingliz yozuvchisi Mayn Rid 1818 yilda kambag'al irland oilasida dunyoga keldi. U 20 yoshidan Qo'shma Shtatlarda yashab, jurnalistika bilan shug'ullandi. Angliyaga qaytganidan so'ng ko'plab romanlar yaratdi. Uning eng yaxshi asari «Boshsiz chavandoz» romanidir.*

*O'z asarlarida Mayn Rid ovchi va cho'ponlar, negr va hindularning hayoti va sarguzashtlari haqida hikoya qiladi. Yozuvchining amerikalik do'stlaridan biri keksa ovchi Zeb Stamp edi. U ko'p g'aroyib voqealarni so'zlab berardi. «Daraxtdagi o'lja» ham ana shunday hikoyalardan biridir.*

tepasiga chiqib, anavi burgutchalarni ushlab olaman».

Bir zumda daraxtga  
chiqib

# DARAXTDAGI

oldim,  
lekin uya turgan  
joyga chiqish amri mahol edi.  
Bir amallab u yerga chiqib olgach,

uni yaxshiroq ko'rishga muvaffaq bo'ldim, unda ikki burgut bolasi va ular uchun keltirilgan ozroq

ovqat – go'sht va baliq bor edi. Katta qushlar ko'rinmasdi.

Burgutlarni uyadan olmoqchi bo'lib qo'l cho'zgan edim hamki, kutilmaganda boshimning orqasida qattiq sanchiq paydo bo'ldi.

Orqamga o'girilgandim, ona burgutga ko'zim tushdi. U ikkinchi zarbani berishga shaylanib turardi. Siz u burgutlarning qanchalik kuchli ekanini bilsangiz edi.

Yaxshisi pastga tushganim ma'qul, dedim-da,





quyiroqdagi shoxga tushdim. O'sha yerda o'tirib nafasimni rosladim, ehtimol o'shanda ko'zim ilingandir. Bir mahal pastdan dahshatli suron eshitildi. Qarasam atrofimni suv bosib ketibdi. Daryo bilan mening o'rtamda son-sanoqsiz daraxtlar uyulib yotardi, ular suvga birin-ketin qulab tushgandi. Men o'tirgan daraxt esa suvda chayqalib turardi. Nima bo'lganligi menga ayon bo'ldi: Missisipidagi suv toshqini. Men o'tirgan daraxt suvning o'rtasida edi. «Bu daraxtning qulab tushmasligiga umid qilaman» dedim o'zimga o'zim.


Qo'limdan nimayam kelardi? Suzishni bilmasam. O'sha joyda o'tiraverishdan boshqa choram ham yo'q edi. Tuni bilan shoxda o'tirgancha yordam kuta boshladim.

Ertalab daryoda qayiqni ko'rib qolib, «Yordam!», «Yordam beringlar!» deya qichqirdim. Lekin qayiqdagilar meni eshitishmadi. Ular juda uzoqda edi. Bir ozdan keyin ikkinchi qayiq o'tdi, keyin uchinchi, to'rtinchi... Har gal ularga qichqirardimu ammo ular ovozimni eshitishmasdi. Daraxtdagi birinchi kunim shunday o'tdi. Kechga borib juda ochiqqan edim.

Burgutlar uyasida ozroq go'sht va baliq borligi birdan esimga tushib qoldi. Shunday qilib men tag'in uya oldiga chiqdim. Shubhasiz, qushlar menga yana hujum qilishdi, biroq bu gal men

ham sergak bo'lib turdim. Ular bilan olishishga to'g'ri keldi, lekin buning evaziga jindek baliq nasib etdi va uni paqqos tushirdim. Shu tariqa qornim ham to'ydi. Ammo birpasdan keyin chanqab qoldim. Bunga chidab bo'lmasdi. Shundoq yaqinimda suv to'lib yotardi-yu men ololmasdim. O'ylay-o'ylay oxiri ilojini topgandek bo'ldim.

Ko'ylagimni yechib,



uni bog'ich bilan bog'ladim-da, pastga tushirdim. Tortib olganimda ko'ylagim suv bilan to'la edi, shu yo'sinda chanqog'im ham bosildi.

Daraxt ustida uzundan-uzun olti kunni o'tkazdim. Har kuni uyaga chiqib, u yerdan ozroq yegulik olardim, shu bois qornim doim to'q bo'lardi, daraxt tagida esa suv to'lib yotardi.

Qachonki Missisipida katta toshqin bo'lsa, daryoda suv bir necha oygacha kamaymasdi.

Lekin men bir umr daraxtda qolib ketolmasdim, shuning uchun qutulish yo'llarini izlay boshladim. Bu paytga kelib men burgutlardan qo'rqmaydigan bo'lib qolgandim. Bizlar do'st bo'lib qolgandik. Chunki ular mening qushchalarga tegmayotganimni ko'rib turishardi. Ular ko'pincha men o'tirgan shoxga qo'nib, shundoq yaqinimda o'tirishardi. Men burgutlarning qanotlari nihoyatda baquvvat

bo'lishini bilardim. Balki ular meni quruqlikka olib chiqib qo'yar. Men suvda qo'l-oyoqlarimni harakatga keltirib, ularga ozroq ko'maklashsam bas.

Shunday qilib, men ikki burgutni ushlab olishga jazm qildim. Bu juda mushkul edi, shunday bo'lsa-da, birmuncha vaqtdan keyin buning uddasidan chiqdim. Bog'ichni olib ularning to'rttala oyog'ini bitta qilib bog'ladim. Keyin o'sha bog'ich

bilan o'zimni bog'ladim-da, suvga sakradim.

Mo'ljalim yomon emasdi: burgutlar meni shoxlar orasidan pastga, pastga, yana pastga olib tushishdi va zum o'tmay men o'zimni suvda ko'rdim. Shunda qushlar qanotlari bilan suvda suza boshlashdi. Menam qo'l-oyoqlarimni harakatga keltirib, imkoni boricha ularga yordam berdim. Ular daryoning narigi sohiliga suzib chiqishdi. Ko'z ochib yumguncha men quruqlikka chiqib olgandim.

-Xo'sh, keyin-chi, siz u burgutlarni nima qildingiz? - so'radim Zebdan. - Qo'yib yubordingizmi?

-Nega qo'yib yuborarkanman, - dedi Zeb. - Men ularni angliyalik janobga sotib yuborib, evaziga mo'maygina pul ham oldim.

*Ingliz tilidan «Turon»  
kutubxonasi xodimi  
Feruza NURIDDINOVA  
tarjimasi.*



## ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Davomi.)

**Boshi o'tgan sonda).**

Nikolay Kopernikday taqvodor ruhoniyligi aslida kimligini mutaassib cherkov nihoyatda kech bilib qoldi,

qarabsizki, har qancha urush-janjall ham baayni qoyaga urilgan to'liqindek, uning metin sabot-matonatiga urilib, parcha-parcha bo'lib ketardi.

Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.

Abu Shukur Balxiy

Kopernik boshqalarning fikriga ko'p ham e'tibor qilavermasdi.

Uni maqtashsa ham, so'kishsa ham bir zaylda iljayib turaverar, ammo bu nimkulgu

ostida nafrat aralash bir loqaydlik

lekin fursat boy berilgan edi. Uning buyuk dahriyligi bag'oyat tez tarqalgan, insonlar aql-

bo'ladi, deb zarracha tashvishlanmaydi. O'z g'oyalarini targ'ib qilishga, atrofiga hamfikir odamlarni to'plashga, shogirdlar yig'ishga urinmaydi.

Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.


Sharq naqli

Oilada to'rt farzandning kenjasi bo'lgan Nikolay otasini yaxshi eslolmaydi.

Uni avval kanonik,

## QUYOSHNI TO'XTATGAN ODAM

idrokini shu qadar mustahkam egallab olgandiki, qaysi bir miyadan urib chiqarishni bilmasdi cherkov. «Astronomiya san'atini emas, balki e'tiqod asoslarini» ostin-ustun qilib yuborgan, F.Engelsning iborasi bilan aytganda «tabiatni tushuntirish masalalari bo'yicha cherkovning mo'tabar nufuzini chilparchin qilib tashlagan», Kopernikni hali zararsiz paytida payqamay qolishdi. Uning vafotidan 73 yil o'tgandan keyingina hayotidagi asosiy kitobi bo'lgan «Osmon sferalarining aylanishi haqida» nomli asarini inkvizitsiya «To tuzatilmaguniga qadar» ta'qiqlangan kitoblar ro'yxatiga kiritib qo'ydi.



Inson taqdirini fe'l-atvori ham belgilar ekan. Kopernik na Bruno va na Galileyga o'xshardi. U faqatgina o'zligida namoyon edi. «Men ommaning olqishiga hech qachon zor bo'lmadim, - deb yozadi u, - umrim bo'yi u ma'qullaydigan biron ish qilmadim, aksincha, u yoqtirmaydigan, qarshi chiqadigan narsalar bilan shug'ullandim». Olim o'ziga tarafdor to'plamas, bahs-munozaraga intilmas edi. Bahs chiqib qolgan taqdirda ham kuyib-pishib o'tirmay, aytgan fikrida ikki oyog'ini tirab turib olar edi. Ana shunda

pinhon edi. U hatto o'z ustidan jindek kinoya qilar, bunaqasi esa faylasuflarda ham uchramasa kerak? «Matematiklarning odatdagi mushohadasida va balki sog'lom fikrga zid o'laroq holda Yer qisman aylanishining tasavvur qilishga jur'at etdim», deb yozadi. Bu kesatiq ehtimol o'ziga xos bir kinoya, ta'minotini xaspo'shlash uchun shunchaki bir o'yindir?! Lekin ayni paytda Kopernik - ochiqko'ngil va samimiy inson. U har xil mish-mish, ig'volarga hech qachon qo'shilmaydi, obro'yimga putur yetib qolsa nima

keyin yepiskoplik martabasiga yetishgan amakisi Lukash Vagenrode tarbiya qilgan. Hukmfarmo, badqovoq, insoniy va siyosiy qarashlarida eshakdek qaysar, Tevton ritsarlari ham, Polsha qiroli ham «iblisning o'zi» deya ta'riflagan bu kimsa butun umri mobaynida yolg'iz bir kishiga - jiyaniga mehr qo'ygan, uni yoshligida papalab o'stirgani yetmagandek, to o'zi o'lgunicha suyib-ardoqlagan odam edi. Ana shu amakisi tufayli Nikolay 24 yoshidayoq kanonik bo'ldi, ya'ni tirikchiligi ta'minlangan, mashaqqatsiz hayot kechiruvchi odamga aylandi. Zotan, Frembork ibodatxonasi - mo'jazgina bir mulk butun boshli bir davlat bo'lib, o'zining xo'jaliklariga, ovloq va baliqchilik maskanlariga ega edi. Kapitul boshqaruvchi bu joylardan tushadigan daromad esa bir hovuchgina kanoniklar va prelatlar o'rtasida taqsimlanardi. Ana shu amakisi Nikolayni avval avliyo Yan maktabida, keyin Krakov Universitetida o'qitdi, so'ngra bilimni davom ettirishi uchun Italiyaga yubordi.

(Davomi bor).



Yaqinda bir jurnalda ajoyib ma'lumotni o'qib qoldim. Unda yozilishicha, kanadalik o'quvchilarning aksariyati yaxshi baholarga o'qir ekanlar. Ularning ko'pchiligi, ya'ni 60-70 foizi ekspertlar bergan «A'lochi bo'lish yaxshimi?» degan savolga, ham yaxshi, ham yomon, deb javob berishibdi... Bu ma'lumotni o'qib, men ham tengdoshlarimning bu boradagi fikrlarini bilishga qaror qildim va ularga: «A'lochi bo'lish yaxshimi? Nima uchun?», degan savollar bilan murojaat qildim:

**Go'zal QOSIMJONOVA,**

**8-sinf o'quvchisi:**

- A'lochi bo'lish yomon, chunki a'lochilarga eng og'ir yumushlar buyuriladi. Hamma o'quvchilar dars soatlari tugashi bilan uylariga ketsalar, a'lochilar o'qituvchining topshiriqlarini bajarish uchun yana maktabda qoladilar. Jurnal yozish, daftar tekshirish kabi yumushlar ham ba'zida a'lochilar zimmasiga yuklatiladi.

## A'LOCHI BO'LISH YAXSHIMI?



**Muattar TO'XTAYEVA,**

**5-sinf o'quvchisi:**

- A'lochi o'quvchilar kamdan-kam hollarda sinfdoshlari orasidan chin do'st topa oladilar. To'g'ri, ularning do'sti ko'p bo'ladi, lekin ko'pchiligi faqat ko'chirish va bilmaganlarini so'rab olish uchungina do'st bo'ladilar. Sinfdoshlari ularga «professor», «bilag'on» deb turli laqablar qo'yib olishadi, sababi ularga hasad qilishadida...

**Nilufar AHMEDOVA,**

**8-sinf o'quvchisi:**

- Har bir narsaning yaxshi-yomon

tomoni bo'lganidek, a'lochi bo'lishning ham o'ziga xos qiyinchilik tomonlari bor. Lekin bu degani a'lochi bo'lmaslik degani emas.

Yaxshi o'qigani o'ziga yaxshi. O'qituvchilar oldida hurmati baland bo'ladi. Hamma ham a'lochi bo'lavermaydi-ku axir!?

**ABDUMUTAL,**

**9-sinf o'quvchisi:**

- A'lochi o'quvchilardan ko'p hollarda yaxshi o'qimaydigan, kuchiga ishongan o'quvchilar ko'chirish uchun so'rashadi. Agar berishmasa, «xafa bo'lishadi» va xafa qilishadi. Menimcha a'lochi bo'lish qiyin...

Ularning fikrlariga men ham qo'shilaman. To'g'ri, a'lochi bo'lish qiyin va mas'uliyatli. Lekin nima bo'lganda ham oramizda a'lochilar ko'paysin. Siz nima deysiz, aziz tengdosh?

**Malohat TO'XTAYEVA,**

**Toshkent shahar, Akmal**

**Ikromov tumanidagi**

**116 - maktabning 8- «B» sinf o'quvchisi.**

Sinfimiz bilan sportga qiziqishimiz juda baland edi. 4-sinfdan boshlab bizga rahbarlik qila boshlagan aziz va mehribon ustozimiz Muxtor aka Burxonov bizning mitti yuraklarimizda sportga nisbatan mehr shu'lasini yoqqan bo'lsalar, siz, 6-sinfdan boshlab sinfirmizga rahbarlik qilgan biz uchun eng yaqin do'st, otalarcha mehribon inson Rafael aka Rahmatov, ana shu shu'lani alangalatib yuborgansiz, desam mubolag'a bo'lmaydi. Biz maktabimizning eng kuchli va eng irodali o'qituvchisi rahbarimiz ekanligidan faxrlanib yurardik. Qolaversa, doimo a'lo baholarga o'qib, «Rafael Rahmatovning sinfi» degan nomga munosib bo'lish uchun astoydil harakat qilardik.

O'sha paytlarda o'tkaziladigan

«Quvnoq startlar» Respublika sport musobaqasiga ham bizning maktabimizni taklif qilishgandi. Sizning boshchiligingizda jamoa tuzildi. Unga «Mash'al» nomi berildi. Yodingizdami ustoz, biz har gal Toshkentga borganimizda, faqat

g'alaba bilan qaytardik. 6 marta Respublika chempioni bo'lib, eng a'lochi va jamoatchi o'quvchilar dam oladigan maskan - «Artek»ka yo'llanma oldik.

Biz sizning so'zlaringizga doimo amal qilib yashardik. Inson uchun 4 narsa juda zarur: poklik, parxez, badantarbiya, eng asosiysi, iymon, degan so'zlaringiz hamon yodimizda...

Ustoz, hozir ham G'ijduvon shahridagi Fitrat nomli maktabga rahbarlik qilayotgan ekansiz. Maktabingiz viloyatda eng yaxshi maktablardan ekan.

### Ustozimga maktub

Uzoq yillik samarali mehnatlaringiz evaziga «Xalq ta'limi a'lochisi» unvoni



bilan taqdirlanibsiz. Sizning quvonchingizga biz ham sherikmiz. Hozir tarbiyalayotgan o'quvchilaringiz ham Vatanimiz, xalqimiz uchun munosib farzandlar bo'lib kamol topishlariga, mehnatlaringizni, ishonchingizni bizdek oqlashlariga ishonamiz.

Sizga va siz orqali barcha ustozlarimizga sog'lik, xotirjamlik va oilaviy baxt tilab qoluvchi sobiq o'quvchingiz,

**Nodira MUXAMMEDOVA.**

**RAFAEL RAHMATOVNING SINFI**



## Taklif

Mana bir necha yildirki, O'zbekiston televideniyesi tomonidan turli mavzudagi seriallar berib borilmoqda. Ayniqsa, o'zbek xalqi bunday seriallarni zo'r qiziqish bilan tomosha qiladi.

Avvaliga

«Morena Klara», «Muhabbat qahvasi», «Qalbim chechagi» va hokazolar, bugungi kunda esa «Esmeralda»ni yetti yoshdan yetmish yoshgacha ko'ryapti desak mubolag'a bo'lmas. Hattoki bog'cha bolalari ham serialni ko'rmaguncha uyquga ketmaydilar.

«Esmeralda» ayniqsa uy bekalarining jonu dili. Maktab o'quvchilarini-



ku, aytmasa ham bo'ladi. Kinoni ko'radilaru ertasi kuni darsda ham, tanaffusda ham uni muhokama qilishga tushadilar.

Bir jiyanimga dars qildirmoqchi bo'lsam, - to'xtab turing «Esmeralda» boshlandi, ko'rib olay, keyin qilaman, - deb o'sha kuni dars ham tayyorlamadi. Ertasi kuni o'qituvchisi ikki baho qo'ygan ekan, uyga yig'lab kelibdi. Hayron bo'lasan, ayb o'zi kimda, dars qilmay borgan o'quvchidami yoki, ikki qo'ygan o'qituvchida, balki «Esmeralda» ko'rishni

taqiqlay olmagan ota-onadadir? Shu kabi seriallarni jamiyatimizga balki keragi bor, yoki yo'qdir, lekin shuni ham unutmashimiz kerakki, bolalarning ruhiyati ko'pincha kino filmlar, multfilmlar asosida shakllanadi. Ular shu film qahramonlariga o'xshashni, ular singari hurmatga yoki «nafrat»ga loyiq bo'lishga taqlid qiladilar. Ana shundan ham anglashimiz mumkinki, bolajonlar turli seriallar sabab, o'zgarib boradilar. Kiyinishlari, qiz va o'g'il bolalarning o'zini tutishlari «kino»ga o'xshab ketayotgani sir emas-ku! O'zbekiligimizni, sharm-hayoli millat farzandi ekanligimizni unutmaylik, aziz tengdoshlar!

Shahlo MUTALOVA.

Yaqinda bizning Nafis san'at litseyimizda ona tili va adabiyot oyligi o'tkazildi. Bir oy davomida litseyimizda «Ona tilim - jonu dilim», «Adabiyot mening tasavvurimda», «Zukko bolalar» kabi bir nechta qiziqarli tadbir va bellashuvlar bo'lib o'tdi. Ayniqsa, litseyimizning bitiruvchi sinf o'quvchilari tomonidan

**«FAN OYLIIGI» O'TKAZILDI**

tayyorlangan sahna ko'rinishlari juda ajoyib o'tdi.

Bu ko'rinishda ona tiliga oid muammolar, o'zbek tiliga chetdan kelgan so'zlarni aralashtirib ishlatishlar tanqid ostiga olindi va qahramonlar qiyofasida tasvirlab berildi.

Kuni kecha ushbu fan oyligining yopilish marosimiga bag'ishlangan kechada «Devoriy gazetalar» ko'rik-tanlovining g'oliblari aniqlandi va sovg'alar topshirildi. Barcha tadbirlarda faol ishtirok etgan sinflar va o'quvchilar «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlandilar.

Shu kabi tadbirlar tez-tez o'tkazib turilishini istardim. Chunki bunday fan oyliklari bizda shu fanga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytiradi.

Xolida LAKBAROVA,

Alisher Navoiy nomidagi Nafis san'at litseyining «adabiyot» bo'limi o'quvchisi.

## MEHNATKASH YOSHLAR

Hozirda O'zbekiston yoshlari intiluvchan, tirishqoq va mehnatkashligi bilan kattalardan qolishmaydi. Dunyo miqyosida oladigan bo'lsak, ko'pgina mamlakatlar yoshlari mehnatsevarligi, bilimdonligi va zukkoligi bilan o'z davlatini yuksalishiga hissa qo'shib kelmoqda.

Masalan, dunyoda yetakchi davlatlar qatorida turadigan Yaponiya va AQSH davlatlari mustaqillikning ilk kunlaridanoq yoshlarga katta e'tibor bergan ekan. Germaniya, Kanada, Rossiya kabi o'z o'rniga ega bo'lgan davlatlarda ham 15-16 yoshlilar mehnat va o'z qobiliyatiga yarasha ishlar bilan banddirlar. Masalan, Rossiyaning 70 foiz va AQSHning 54 foiz yoshlari mehnat bilan shug'ullanar ekanlar. Yana bir misol, Rossiya sanoat ishlab chiqarish bo'yicha 37 foizini, AQSH esa 24 foizini tashkil qilar ekan.

Bundan ko'rinib turibdiki, har bir inson yoshligidan boshlab o'z qobiliyati va intilishlariga qarab mehnat qilishi va ilm-hunar o'rganishi kerak. Ana shundagina bu yoshlar o'z yurtini yuksalgan davlatlar qatoriga qo'ya oladi. Qolaversa O'zbekiston Konstitutsiyasida ham yoshlarning mehnat qilish huquqi qonunlashtirib qo'yilgan.

Nozim BOBORAHIMOV,  
Toshkent Moliya Instituti talabasi.



Bolaligimda Beruniy degan kichkina shaharchada yashardik. Ikki qavatli uyimiz, kattagina hovlimiz bor edi. Oyim dam olish kunlarini uy tozalash, kir yuvish va o'zlarining sevimli ishlari - hovlimiz burchagidagi tandirda shirindan-shirin nonlar, patir va somsalar yopish bilan o'tkazardilar. Shunday kunlarning birida uylarni yig'ishtirib yurgan oyim uyimiz ichidagi ikkinchi qavatga ko'tariladigan zinapoyalar ostidan bir juft ilonning oppoq po'stini topib olibdilar. Qo'rqib ketib darhol dadamni chaqirtiribdilar. Ikkovlari uyimizdagi hamma xonalarni, hovlini izlab, hech qayerdan tirik ilonni topisholmabdi. Oyim ikkinchi kuniyoq uyimizga ustalarni chaqirib, nina ning uchidek

bo'lgan teshiklarni ham qoldirmay berkittiribdilar. Baribir, ko'ngillari tinchimabdi-da, birovlarini maslahati bilan uyimizga kattakon tipratikanni olib kelib, qo'yib yuboribdilar. Unga oshxonamizdan joy ajratibdilar. Opam ikkalamiz tipratikanga «Yana» deb nom qo'ydik va boqa boshladik. Oldiniga yoniga borishimiz bilan dum-dumaloq bo'lib oladigan Yana asta-sekin bizga o'rganib bordi. U bilan o'rtamizdagi do'stona munosabatimizni faqat birgina narsa buzib turardi, u ham bo'lsa bizning kuni bilan uyg'oq bo'lib, kechasi uxlashimiz, Yananing esa kunduzi uxlab, kechasi bilan uyg'oq bo'lishi va tuni bilan bir o'zining butun boshli uyda kezib yurishi edi. Yana oshxonadagi o'ziga biriktirilgan burchakda ovqat yeyishni tan olgan bo'lsa-da, yashash uchun oshxonani xohlamadi. Uylarda yugurib yuradigan bo'ldi. Qizig'i shundaki, o'zi kichkinagina bo'la turib kechasi yurganida xuddi kattakon hayvon yurgandek tapillash eshitilardi. Yana bir qiziq odati, kechasi bir necha marta yotoqxonamizga kirib, opam va

mening krovatlarimizga tirmashib chiqib, bizni hidlab-hidlab ketardi. Ba'zida mening boshimga boshini qo'yib uxlab qolardi.

Xullas Yana bizga, biz esa unga judayam o'rganib qoldik.

Shunday kunlarning birida tog'am ikki o'rtoqlari bilan biznikiga mehmon bo'lib keldilar. Oyim ularga mehmonxonadan uxlash uchun o'rin to'shab berdilar. Tog'am va o'rtoqlari endigina uyquga ketishgan ekan, bir payt tog'amni nimadir kelib hidlagandek bo'libdi. Uyqu

tonggacha bezovta qilmabdi. Tog'am baribir uxlay olmabdilar. Ertalab bizning xonamizga qarasarlar, mening boshimga boshini qo'yib tiratikan uxlab yotgan ekan. Tungi «ajina» tipratikan ekanligini bilib, kechasi bo'lgan voqeani dadam bilan oyimga aytib beribdilar. Oyim ogohlantirish eslaridan chiqqani uchun mehmonlardan uzr so'rabdilar.

Shu voqeadan so'ng uyimizda uxlab qoladigan mehmonlarga tipratikanimiz borligini aytadigan

bo'ldik. Nihoyat qish keldi. Uy issiq bo'lgandanmi, tipratikanimiz qishki uyquga yotmadi. Har doimgidek, kechalari xonalarni kezib yuraverdi. Biroq hamma ninalari tushib qolib, oppoq terisi qoldi xolos. Bahorga chiqib, ninalari yana o'sib chiqa boshladi. O'zi ham kattakon koptokka o'xshab dumaloq bo'lib qoldi. Bir kuni kechasi oyim men va opamni uyqudan uyg'otib Yanani va uning yonida pildirab yurgan uch dona mitti tipratikanchalarni ko'rsatdilar. Ular jajjigina bo'lib, hali bekinishni ham bilishmasdi. Tipratikanchalar juda ajoyib edi. Ular uzumni yaxshi ko'rishardi. Kuzga borib katta bo'lib qolishdi.

Keyinchalik dadam yana bir-ikkita tipratikanni keltirib, hovliga qo'yib yubordilar. Ular tezda bir-birlariga o'rganib ketishdi. Hovlimizda na sichqon, na boshqa biror hasharot qolmadi. Ayniqsa, ilonlar umuman ko'rinmay ketdi. Ajoyib oila bizning beminnat qo'riqchimizga aylangandi.

Timur RO'ZIMATOV.

## OILAMIZ A'ZOSI - TIPRATIKAN



zo'rligidan ko'zlarini ochib qaray olmay yotaveribdilar. So'ngra ustilaridan allanima o'rmalab o'tgandek bo'libdi. Qo'rqib ketib, jon holatida turib chiroqni yoqib qarasarlar, hech narsa yo'q emish. Yana joylariga yotibdilar. Bir payt qarasarlar o'rtoqlaridan biri ham turib chiroqni yoqibdi-da, yana o'chirib yotibdi. Navbat uchinchisiga kelganda, bir-birovlaridan nima bo'lganligini so'rashibdi. Har uchchallasini ham nimadir hidlab ketganligi ma'lum bo'libdi. Mehmonxonani izlab ko'rib, hech narsani topisha olmabdi. Allanima chiroqni yoqsalar yo'q bo'lib qolarkan, o'chirsalar tap-tap etib yonlaridan o'tib ketarkan. Oxiri «Bu uyda ajina bo'lsa kerak», deb o'ylashibdi. Bir payt qarashsa, sirli narsa mehmonxonadan chiqib men va opam uxlaydigan xonaga kirib ketibdi. Tog'am yugurib borib eshikni berkitib, chiroqni yoqib qarasarlar, u yerda ham hech narsa yo'q emish.

Shundan so'ng ularni hech narsa



## «Bizning to'garak»ka yozadilar

## SHOGIRDLARIM

SHOIRU  
SHOIRALAR...


Ushbu maktubimni «Tong yulduzi» gazetasi qoshidagi «Istiqlol umidlari» to'garagiga Qashqadaryo vohasida joylashgan tog'li Kitob tumanining go'zal qishloqlaridan biri bo'lmish Rusqishloqdan yo'llayapman.

Men tahsil berayotgan 25 - maktab o'quvchilari orasida ham she'riyatga

ixlosmandlari talaygina. Ular bilan birgalikda «Bizning to'garak» sahifasida e'lon qilinayotgan she'r va hikoyalarni zo'r qiziqish bilan o'qib boramiz. O'quvchilarim ham o'z she'rlarini ana shu sahifada o'qishni orzulashadi. Ularning she'riy mashqlaridan jamlab, sizga yuboryapman. Ma'qul bo'lganlarini sahifangizda chop etsangiz. Shoyad, shogirdlarim qalbidagi umid uchqunlari

alanga olib, kelgusida ajoyib shoiru shoirlar bo'lib yetishsalar. Qolaversa, ulardagi iqtidorni o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'naltira bilish sizni bizning vazifamiz, deb bilaman.

Salom bilan to'garak rahbari  
Zulxumor JO'RAYEVA.



## IJOD BOG'I

Qalbmida yozib havas,  
Tutib men qalam.  
Nafis ijod bog'iga,  
Qo'ydimu qadam.  
O'stirolsam ajib gul,  
Muattar hidli.  
Bog' kezganlar zavqlansa,  
Nozikta'b, didli.

Muxlisa ISMOILOVA,  
8 - sinf o'quvchisi.

## O'ZBEKISTON

Tug'ilib o'sganim - O'sbekistonim,  
Tuproq yo'llarida chog'im keladi.  
Xalqimga munosib bir farzand bo'lib,  
Hayotda o'z o'rnim topgim keladi.  
Ustoz Zulfiyadek she'rlar qoralab,  
Muxlislar olqishin olgim keladi.  
Mashhur shoira yurgan yo'lidan,  
Asta-asta yurib borgim keladi.

Zarnigor DOXIYEVA,  
7 - sinf o'quvchisi.

## ZILOL SUV

Ey shoshqaloq zilol suv,  
Dovonlardan oshasan.  
Qaylardan oqib kelib,  
Yana qayga shoshasan?  
Biroz to'xta, shoshmagin,  
Dardlarim to'kib solay.  
Armonlarim olib ket,  
Men yengil tortib qolay.

Gulmira JUMAYEVA,  
6 - sinf o'quvchisi.

MEN QISHLOQ  
QIZIMAN

Men qishloq farzandiman,  
Kamtarin dilbandiman.  
Dadamning ovunchog'i,  
To'lar onam quchog'i.  
Rusqishlog'im bog'-bo'ston,  
Vatanim O'zbekiston.  
Men uning erkasiman,  
Kelajak, ertasiman.

Zilola NAZAROVA,  
6 - «A» sinf o'quvchisi.

SHABNAM -  
GULYOSHI

Ertalab turdimu  
Tongni kuzatdim.  
Avvalo xalqimga,  
Salom uzatdim.  
Sharqdan mo'ralagan,  
Yurtim quyoshi.  
Ohista tomchilar,  
Shabnam - gulyoshi.

Shahnoza USMONOVA,  
9 - sinf o'quvchisi.

O'ZBEKISTON  
GERBI

O'zbekiston gerbini,  
E'zozlar keksa-yu yosh.  
Gullagan vodiy uzra,  
Charaqlab turar quyosh.  
O'ng tomoni paxtazor,  
Bahri diling ochadi.  
So'l tomoni bug'doyzor,  
Quyosh nurin sochadi.  
Gerbimiz tepasida,  
Sakkizqirra yaltirar.  
Qirralar o'rtasida,  
Oy va yulduzlar porlar.  
Mavj urar ikki daryo,  
Sirdaryo, Amudaryo.  
Baxtdan berib nishona,  
Xumo qushi parvona.

Ibodot HALILOVA,  
6 - sinf o'quvchisi.

## MENING DO'STIM

O'rtoqlarimning soni,  
Yigirmadan oshadi.  
Ulardan biri doim,  
Yordam uchun shoshadi.  
U fanlardan besh olar,  
Ustozlar mamnun qolar.  
Ishlari bizga manzur,  
Uning ismidir Jasur.

Faxriddinjon BAXRONOV,  
6 - «A» sinf o'quvchisi.

## BOLAJON

Yig'i nima bilmaysan,  
O'tirmaysan, tinmaysan.  
Kuni bilan o'ynaysan,  
Shiringina bolajon.  
Dadang sog'inib qaytar,  
Momong ko'p ertak aytar,  
Onang sen-la faxr etar,  
Asalgina bolajon.

Sayyora VAHOBOVA,  
11 - sinf o'quvchisi.




# TOPISHMOQLAR

U shunday bir tilsimki,  
Yetaklar saodatga.  
Ammo ba'zi insonni,  
Eltar sahro, dashtlikka.



Go'yoki yorqin quyosh,  
Ilm nurin sochadi.  
Bilimimiz boyitib,  
Qalb ko'zini ochadi.



G'am bulutidan yoqqan,  
Yomg'irga xo'p o'xshaydi.  
Bilmam nechun u doim,  
Yig'lab-yig'lab yashaydi?

Misli erur bir karvon,  
Shodlik, g'am yukin ortgan.  
Misli erur erksiz qul,  
Alam zanjirin tortgan.

(Umr)

Dilimizdagi borin,  
Oq qog'ozga so'zlaydi.  
Qadriga yetmasangiz,  
Ko'z yosh to'kmay bo'zlaydi.



Misli quvnoq, oq bola,  
Qaro yo'llardan essiz,  
Yurar, yaxshiligidan,  
Qoldirib oppoq bir iz.



Sadafxon YUNUSALI qizi,  
Andijon viloyati, Izboskan tumani, 8 - sinf o'quvchisi.

## Ostlavhalar

Eng baland osmono'par minora ham yerdan ko'tarilgani kabi, har qanday favvora ham yer bag'ridan sizib chiqib, orzulari og'ushida osmon qadar intiladi. O'zining shodon zarralari bilan insoniyatning qalb gavharini yanada charog'on etib turuvchi fonusdir **FAVVORA**.

Shoxu gado Vatanining ilk debochasi - **BESHIK**.

Dilafruz G'ULOMOVA,  
Toshkent viloyati, Bo'ka tumani.



Nargiza bilan Hafiza juda yaqin dugona. Qo'shni turishadi, maktabga ham birga borib, birga kelishadi, bir partada o'tirishadi. Birgina farqi, Hafizaning dadasi oddiy dehqon, oilasi katta, qo'l uchida kun ko'rishadi. Nargizaning ota-onasi esa tadbirkor, hashamatli uylari, mashinasi bor. Ular yolg'iz qizlariga ko'ngli tusagan narsasini olib berishadi. Ammo bu holat ikki dugona uchun sira ahamiyatsiz...

Ularning do'stligiga hamma havas qiladi. Faqat Gulnoza... hasad qiladi. U Nargiza bilan yaqinlashishga, yaltoqlanib unga yaxshi ko'rinishga harakat qiladi. Hafiza esa uning yo'liga doimo to'g'anoq bo'lib keladi. Shuning uchun u doimo ikki dugonani urushtirib qo'yish yo'lini izlardi...

Bir kuni tanaffusdan sinfga kirgan Nargiza sumkasidan puli yo'qolganini sezib qoldi. Yo'qolgan pullar Hafizaning kundaligi ichidan chiqib qoldi. U o'zini oqlashga harchand

urinmasin, bari befoyda ketdi. Nargiza u bilan gaplashmay qo'ydi. Ich-ichidan dugonasining gunohsizligini sezib

## DO'STLIK DARZ KETDI

(Hikoya)



tursa-da, undan kechirim so'rashga g'ururi yo'l qo'ymasdi. Eng muhimi, do'stining qadri o'tayotgandi.

Bir kuni maktabga barvaqtroq kelib qolgan Nargiza sinfdan eshitilayotgan

Gulnozaning ovozini eshitib qoldi.

- Ko'rdingmi, Nargizaning pulini Hafizaning sumkasiga tiqib qo'yib, ikki dugonani osonlikcha urushtirib qo'ydim. To'g'ri-da, Hafiza o'ziga o'xshagan kambag'alroq qiz bilan dugona bo'lsin.

Nargiza qanday qilib sinfga kirib kelgani, Gulnozaning yoqasidan mahkam ushlab olganini sezmay qoldi. Sinfdoshlar o'rtaga tushishmaganda, Gulnozani do'pposlashi tayin edi. Bu gapdan xabar topgan sinf rahbari majlis chaqirdi. Hammaning oldida Nargiza ham, Gulnoza ham Hafizadan kechirim so'rashdi. Hammasi o'z o'rniga tushdi. Ammo Hafizaning yuragiga tushgan darzning o'rni bitishi qiyin edi.

Zulxumor ASHUROVA,  
Samarqand viloyati,  
Ishtixon shahridagi  
35 - maktabning 9-sinf  
o'quvchisi.




# "TIPRATIKAN"

## SAVOLLAR

**Bo'yiga:** 1. Ikki daryo oralig'idagi Respublika. 4. Imo-... .8. Ko'zaning kattasi. 10. Tola.

**Eniga:** 2. Osmon. 3. So'z turkumi. 4. Arab alifbosidagi 16-harf. 5. Olovga qalaydigan narsa. 6. Qizlar ismi. 7. O'zbekiston boyligi. 9. Murabbo.

**Tuzuvchi:** Madina SAIDMURODOVA, Parkent tumanidagi 35 - maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.



## O'qi, qiziq!

### KOLIBRI KUCHLI QUSHMI?

Yer yuzidagi qushlarning orasida eng kichigi Kolibri qushi bo'lib, uning kattaligi qovoq aridek, og'irligi esa 1,5—2 gramm ekan.

Bu qush kun bo'yi guldan-gulga qo'nib, uzun tumshuqchasini gulning ichiga tiqadi-da, shirasini so'rib oladi. U har kuni o'z vaznidan ikki hissa ortiq miqdorda hashorat tutib yeydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u nisbatan baquvvat va chayir qush sanaladi. Ba'zan yetarli miqdorda ovqat topolmay, sillasi qurib, kun bo'yi karaxt bo'lib uxlaydi.

Kolibri Amerikaning Alyaskagacha bo'lgan yerlarida ko'proq uchraydi. Ular qishda ekvatorga tomon uchib ketishadi. Kolibri soatiga 90 km. tezlikda uchib, 800 km. masofani to'xtamay bosib o'tadi. Uning patlari xuddi yaltiroq

toshlardek tovlanib turadi. Odatda kolibri yerda yurmaydi. Uning oyog'i nihoyatda kalta bo'lgani uchun yerga qo'nolmaydi ham. Eng ajablanarlisi shundaki, kolibrilar jussasi kichik bo'lsa-da, o'zidan yuz barobar katta yirtqich qushlarga daf'atan chovut solishadi. Ularning hech bir hadiksiz yirtqich qushlarga tashlanishining boisi shundaki, ular osmonda

har tomonlama - oldinga, orqaga, yonga ham bermalol ucha olishadi. Shuning uchun ham kolibrilar eng kuchli, hech narsadan tap tortmaydigan qushlardir. Shuni aytalar kerakda «Kichkina demang bizni ...» deb.

«Qiziqarli geografiya» kitobi asosida  
Dilafroz XUDOYBERDIYEVA  
tayyorladi.

Ona yuringiz - oling boshingiz  
**TONG Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
MATBUOT VA AXBOROT  
AGENTLIGI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

**BOSH MUHARRIR:**  
Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:**  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxxada ofset usulida bosildi.  
Korxonalar manzili: «Buyuk  
Turon» ko'chasi, 41.  
Buyurtma № G-961  
Gazetani  
Ma'suda IRISNAZAROVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-63-08  
144-63-75